

## OILAVIY MUHITNING AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALAR IJTIMOY KO'NIKMALARIGA TA'SIRI

**Abdunazarov Abdumutal Olimovich,**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti,*

*Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti*

[abdumutal517@mail.ru](mailto:abdumutal517@mail.ru)

ORCID: 0000-0003-0145-0954

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oilaviy muhitning aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishiga ta'siri pedagogik va psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari, ota-onalarning pedagogik madaniyati, oiladagi psixologik muhit hamda oila a'zolari bilan muloqot jarayonining bolalarning ijtimoiylashuvi va kommunikativ faoliyatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, maqolada aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda mustaqil faoliyat, hamkorlik, o'zaro muloqot va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda oilaviy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari oiladagi sog'lom psixologik muhit va ota-onalar bilan pedagoglarning tizimli hamkorligi bolalarning ijtimoiy moslashuvi hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Maqola yakunida oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oilaviy muhit, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar, ijtimoiy ko'nikmalar, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiya, oilaviy tarbiya, pedagogik hamkorlik, korreksion-pedagogik yondashuv, maxsus pedagogika, psixologik muhit, ota-onalar bilan hamkorlik, ijtimoiylashuv.

**Аннотация.** В данной статье анализируется влияние семейной среды на формирование социальных навыков у детей с проблемами умственного развития с педагогической и психологической точек зрения. Исследование освещает влияние воспитательных способностей семьи, педагогической культуры родителей, психологической среды в семье и процесса общения с членами семьи на социализацию и коммуникативную активность детей. В статье также раскрывается важность семейной поддержки в формировании культуры самостоятельности, сотрудничества, взаимного общения и поведения у детей с проблемами умственного развития. Результаты исследования показывают, что здоровая психологическая среда в семье и систематическое сотрудничество между родителями и воспитателями являются важными факторами развития социальной адаптации и коммуникативной компетентности детей. В заключение статьи разработаны практические рекомендации по повышению эффективности семейного воспитания.

**Ключевые слова:** семейная среда, дети с проблемами умственного развития, социальные навыки, социальная адаптация, коммуникативная компетентность, семейное воспитание, педагогическое сотрудничество, коррекционно-педагогический подход, специальная педагогика, психологическая среда, сотрудничество с родителями, социализация.

**Abstract.** This article analyzes the influence of the family environment on the formation of social skills in children with mental development problems from a pedagogical and psychological perspective. The study highlights the impact of the family's educational capabilities, the pedagogical culture of parents, the psychological environment in the family, and the process of communication with family members on the socialization and communicative activity of children. The article also reveals the importance of family support in the formation of a culture of independent activity, cooperation, mutual communication, and behavior in children with mental development problems. The results of the study show that a healthy psychological environment in the family and systematic cooperation between parents and educators are important factors in the development of children's social adaptation and communicative competence. At the end of the article, practical recommendations are developed to increase the effectiveness of family education.

*Keywords: family environment, children with mental development problems, social skills, social adaptation, communicative competence, family upbringing, pedagogical cooperation, correctional-pedagogical approach, special pedagogy, psychological environment, cooperation with parents, socialization.*

**Kirish.** Zamonaviy maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim tizimida aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda bolaning ijtimoiy ko'nikmalari – muloqotga kirishish, jamoada faoliyat olib borish, o'z xatti-harakatini boshqarish, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari muhim o'rin tutadi. Ushbu ko'nikmalarning shakllanishida esa oilaviy muhitning ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki oila bolaning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, unda shakllangan emotsional munosabatlar, kommunikativ tajriba va axloqiy qadriyatlar keyingi ijtimoiy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda bilish faoliyati, emotsional-irodaviy jarayonlar hamda kommunikativ kompetensiyalarning sust rivojlanganligi sababli ular ijtimoiy munosabatlarga kirishishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois oiladagi psixologik muhit, ota-onalarning pedagogik savodxonligi, bolaga nisbatan ijobiy munosabat va tizimli qo'llab-quvvatlash ushbu bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar oilaviy tarbiya uslubi, ota-onalarning emotsional qo'llab-quvvatlashi va kommunikativ faolligi bolaning ijtimoiy moslashuvi hamda mustaqil hayotga tayyorgarlik darajasiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, demokratik va qo'llab-quvvatlovchi oilaviy muhit bolalarda o'ziga ishonch, ijtimoiy faollik va muloqot madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, nizoli yoki befarq oilaviy muhit bolalarning emotsional holatiga salbiy ta'sir etib, ularda kommunikativ chekinish, ijtimoiy passivlik va moslashuv qiyinchiliklarini yuzaga keltiradi.[10]

Mamlakatimizda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati oilaning pedagogik imkoniyatlarini kuchaytirishni ham taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, oilaviy muhitning aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalariga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada oilaviy muhitning aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishiga ta'siri, oilaviy tarbiya omillarining pedagogik imkoniyatlari hamda ota-onalar bilan korreksion-pedagogik hamkorlikning samaradorligi tahlil qilinadi.[15]

**Adabiyotlar tahlili.** Aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi va oilaviy muhitning ushbu jarayonga ta'siri ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, M.S.Pevzner, V.V.Lebedinskiy kabi olimlarning ilmiy qarashlarida bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy

muhit va kommunikativ faoliyat bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlangan.[7] L.S.Vigotskiy bolaning rivojlanishida “ijtimoiy vaziyat” va “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchalarini ilgari surib, oilaviy muhitning shaxs shakllanishidagi yetakchi rolini asoslab bergan.

A.R.Luriya tadqiqotlarida aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq va kommunikativ faoliyatning sustligi oilaviy muloqot sifati bilan bevosita bog‘liq ekanligi qayd etiladi.[12] M.S.Pevzner esa oiladagi emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bolalarda ijtimoiy moslashuvning buzilishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda “family-centered approach” – oilaga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlantirishning samarali modeli sifatida e’tirof etilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham oilaviy tarbiya va maxsus pedagogik yordam masalalari keng o‘rganilgan. Jumladan, L.R.Muminova tadqiqotlarida maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiylashtirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari va ota-onalar bilan tizimli hamkorlikning ahamiyati yoritilgan.[13] M.Yu.Ayupova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oilaviy tarbiya jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilingan.[1] G‘.B.Shoumarovesa aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga oiladagi psixologik muhit sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.[14]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda oilaviy muhitning umumiy tarbiyaviy imkoniyatlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, aynan aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga oilaning ta’siri yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Shu bois mazkur muammoni korreksion-pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, oilaga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv va korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillari tanlandi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, ota-onalar bilan suhbat, savolnoma, diagnostik tahlil, qiyosiy-taqqoslash va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, oiladagi psixologik muhitning bolalar ijtimoiy ko‘nikmalariga ta’sirini aniqlash maqsadida kommunikativ faoliyat, ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlik mezonlari asosida monitoring ishlari olib borildi.

**Tahlillar va natijalar.** Tadqiqot natijalari oilaviy muhit aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Dastlabki diagnostika jarayonida oilaviy munosabatlari barqaror, emotsional qo‘llab-quvvatlovchi va pedagogik jihatdan faol oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda kommunikativ faollik, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida oiladagi demokratik tarbiya uslubi bolalarda mustaqillik, o'ziga ishonch va jamoada faol ishtirok etish ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Aksincha, oiladagi nizoli psixologik muhit, ota-onalarning bolaga nisbatan befarqligi yoki haddan tashqari nazorat qiluvchi munosabati bolalarda kommunikativ chekinish, emotsional beqarorlik va ijtimoiy passivlikni yuzaga keltirishi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari davomida ota-onalar uchun tashkil etilgan pedagogik treninglar, psixologik maslahatlar va oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar samarali natija berdi. Xususan, ota-onalarning pedagogik savodxonligi oshgani sari bolalarda muloqotga kirishish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy qoidalarga rioya etish ko'nikmalarining rivojlanishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilada bolaga beriladigan emotsional qo'llab-quvvatlash, birgalikdagi faoliyat va muntazam kommunikativ muloqot uning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Olingan natijalar oilaviy muhitning aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishida yetakchi omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, oiladagi sog'lom psixologik muhit bolaning emotsional xavfsizligini ta'minlab, unda kommunikativ faollik va ijtimoiy ishonchni rivojlantiradi.

Muhokama natijalariga ko'ra, ota-onalarning pedagogik savodxonligi va korreksion-pedagogik jarayondagi faol ishtiroki bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, oilada bolani mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ijtimoiy vaziyatlarga tayyorlash va muloqotga jalb etish uning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Vigotskiyning bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning yetakchi roli haqidagi nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Chunki oilaviy muloqot sifati va emotsional yaqinlik bolalarda ijtimoiy tajribaning shakllanishiga bevosita ta'sir qilishi kuzatildi.[2]

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayrim oilalarda pedagogik bilimlarning yetarli emasligi, bolaga nisbatan noto'g'ri munosabat yoki ortiqcha himoya qilish holatlari uning ijtimoiy mustaqilligini cheklaydi. Shu bois ota-onalar uchun maxsus pedagogik treninglar, psixologik maslahat xizmatlari va oilaga yo'naltirilgan korreksion dasturlarni keng joriy etish zarur hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, oilaviy muhit aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishida hal qiluvchi pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari oiladagi sog'lom psixologik muhit, ota-onalarning pedagogik madaniyati va emotsional qo'llab-quvvatlashi bolalarning kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy faolligi hamda mustaqil hayotga moslashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, ota-onalar bilan tizimli korreksion-pedagogik hamkorlikni tashkil etish bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligini oshirishi aniqlandi. Oilaga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv bolalarning emotsional barqarorligi, muloqot madaniyati va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur tadqiqot natijalari maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim tizimida oilaning pedagogik imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ota-onalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda oilaga asoslangan korreksion dasturlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupova, M. Y. (2020). Maxsus pedagogika va logopediya asoslari. Fan.
2. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awareness-monolingual-classroom-0>
3. Friend, M. (2021). Special education: Contemporary perspectives for school professionals. Pearson Education.
4. Hallahan, D. P., Kauffman, J. M., & Pullen, P. C. (2019). Exceptional learners: An introduction to special education. Pearson Education.
5. Karimova, V. M. (2018). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Fan va texnologiya.
6. Kholikova, N. (2020). Poetic Features of Uzbek Poetry of the National Awakening Period. ISJ Theoretical & Applied Science, 04(84), 615–623.
7. Lebedinskiy, V. V. (2004). Narusheniya psixicheskogo razvitiya u detey. Akademiya.
8. Muminova, L. R. (2019). Maxsus pedagogika. O'qituvchi.
9. Nurkeldiyeva, D. A. (2022). Inklyuziv ta'limda korreksion-pedagogik texnologiyalar. Universitet.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qaror. <https://lex.uz>
11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020). <https://lex.uz>
12. Po'latova, P. M. (2021). Inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari. Tafakkur.
13. Shoumarov, G. B. (2017). Maxsus psixologiya. Nizomiy nomidagi TDPU.
14. Smith, D. D. (2020). Introduction to special education: Making a difference. Pearson Education.
15. Yusupova, M. A. (2021). Inklyuziv ta'lim muhitida ijtimoiy moslashuv texnologiyalari. Xalq ta'limi, 3(5), 44–49.